

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

PO‘LATOVA SHAHNOZA ABDIRASHITOVNA

**SUTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA YASHIL MARKETING
KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH**

08.00.11 - Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the
doctor of philosophy (PhD) on economics sciences**

Po'latova Shahnoza Abdurashitovna

Sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanish.....3

Пулатова Шахноза Абдурашитовна

Использование концепции зеленого маркетинга на предприятиях по переработке молока.....25

Pulatova Shahnoza Abdurashitovna

Using green marketing concept in dairy processing enterprises.....47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works51

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

PO‘LATOVA SHAHNOZA ABDIRASHITOVNA

**SUTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA YASHIL MARKETING
KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4198 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziynet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar: Ergashxodjayeva Shahnoza Djasurovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Eshtayev Alisher Abduganiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Solieva Gulbaxor Axmadjanovna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Toshkent kimyo texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 15 » 04 soat 1600 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tdiu.uz.


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (624 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «3» 04 kuni tarqatildi.
(2025- yil «3» 04 dagi 16-raqamli restr bayonnomasi).




G.K. Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., dotsent


Sh.A. Allayorov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talab o'sib bormoqda. Bu o'sish asosan iste'molchilar xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar va organik oziq-ovqat mahsulotlarning afzalliklari haqida ekologik toza mahsulotlar haridida afzalliklari haqida xabardorlikni ortishi bilan bog'liq bo'lmoqda. Natijada organik oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bozori hajmi 2023 yilda 204,62 milliard dollarni tashkil etdi. 2034 yilga borib organik oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bozori hajmi 658,38 milliard dollar va yillik talabning o'sishi o'rtacha 6,02 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda¹. 2023 yilda oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bozorida Shimoliy Amerika bozorning 44 foiz ulushi bilan yetakchilik qilmoqda². Lekin shunga qaramasdan jahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra har kuni 1600000 kishi xavfli oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish natijasida turli kasalliklarga chalinmoqda. Har kuni 5 yoshgacha bo'lgan 340 nafar bola xavfli oziq-ovqat mahsulotlari iste'molidan vafot etmoqda³. Shundan kelib chiqqan holda dunyoda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqish hajmini oshirish, iste'molchilarga organik oziq-ovqat mahsulotlari xaridi bo'yicha afzalliklarni targ'ib qilishga e'tibor kuchaymoqda. Bunday vaziyatda organik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kompaniyalar yashil marketing konsepsiyalaridan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda sutni qayta ishlash korxonalarida mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga minimal zarar yetkazish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish, ekologik sertifikatlash va markirovkalash amaliyotini joriy qilish, yashil texnologiyalarni joriy qilish orqali innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish, barqaror rivojlanish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, Skandinaviya mamlakatlari, AQSH va Kanada, Yevropa Ittifoqi davlatlarida ekologik siyosatni shakllantirish, yashil innovatsiyalarni yaratish, "yashil sertifikatlash" va "ekologik markirovkalash" amaliyoti borasida olib borayotgan ilmiy ishlari sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanishda alohida ahamiyatga ega.

Bu borada mamlakatimizda ham alohida me'yoriy hujjatlar, davlat dasturlari va strategiyalar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori qabul qilindi. 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasida ishlab chiqarish va qayta ishlashga investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish vazifasi belgilangan. Bundan tashqari, yashil marketing konsepsiyasini mahalliy

¹ <https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/organic-food-and-beverages-market>

² <https://www.who.int/ru/campaigns/world-food-safety-day/2023>

³ <https://www.fao.org/newsroom/detail/oecd-fao-agricultural-outlook-2023-32-maps-key-output-consumption-and-trade-trends/ru>

korxonalar faoliyatida qo‘llash bo‘yicha “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 51-maqсадda ““Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini rivojlantirish va “ekologik markirovkalash” amaliyotini joriy qilish ko‘zda tutilgan. Mazkur vazifa bevosita sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyalaridan foydalanish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-son, 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son, 2019-yil 24-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmonlari, 2022-yil 3-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son, 2021-yil 20-oktyabrdagi “Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5262-son, 2020-yil 9-sentyabrdagi “Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta‘minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4821-son, 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi ““Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 514-son, 2023-yil 25-oktabrdagi “Milliy “Yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 561-son Qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yashil marketing va yashil mahsulot hamda xizmatlarga bo‘lgan talabni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar 1970-yillarning o‘rtalaridan boshlangan. Lekin, yashil marketing bo‘yicha asosiy ilmiy tadqiqotlar 1990-2005 yillar oralig‘ida salmoqli bo‘lgan. Yashil marketingning nazariy masalalari xorijiy tadqiqotchilardan Ken Hennison va Thomas Kinnear, J.Michael Baker, Frank-Martin Belz va Ken Peattie, Hristo Katrandjiev⁴, yashil marketing strategiyalarini ishlab chiqishning nazariy masalalari Ginsberg J., Bloom P., Renato Orsato, Alhamad A.M., Bin Mat Junoh

⁴ Hennison K., Kinnear T. Ecological Marketing, Prentice-Hall, Englewood Cliffs. NJ. 1976. P. 836., Baker J. Michel. The marketing book (fifth edition). 2003. P. 726 – 755., Frank-Martin Belz, Ken Peattie. Sustainability Marketing: A Global Perspective, 2nd Edition. 2012, 352 pp., Hristo Katrandjiev. Ecological Marketing, Green Marketing, Sustainable Marketing: Synonyms or an Evolution of Ideas?. Economic Alternatives, Issue 1, 2016, 71-82 pp.

M.Z., Binti Tunku Ahmad T.S., Eneizan B., Wu J., Rangan S., Chjan H.⁵ kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. Sut mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida yashil marketing konsepsiyasini qo'llash bo'yicha ham tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, F.M.Khan va S.Ahmad⁶ o'z tadqiqotlarida Hindistonning sut mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida yashil marketing bo'yicha boshqaruv masalalarini o'rganishgan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilari ham yashil marketing konsepsiyalari, oziq-ovqat sanoatida yashil marketing konsepsiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. Jamladan, Yashalov N.N. va Krilova N.P., Ye.V.Smirnova, A.Mixaylova, O.A.Dedyulya⁷ kabilarning ilmiy ishlarida yashil marketing konsepsiyalari tadqiq qilingan.

Korxonalarda zamonaviy marketing konsepsiyalaridan, jumladan, yashil marketingdan foydalanishni takomillashtirishning nazariy masalalari A.Sh.Bekmurodov, M.S.Qosimova, Sh.J.Ergashxadjayeva, A.Soliyev, A.V.Vaxobov, Sh.X.Xajibakiev, M.R.Boltaboyev, B.Mamayev va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁸. M.A.Ikramov, S.A.Eshmatov, L.T.Abduhalilova⁹lar tomonidan sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan.

Ammo yuqorida qayd etilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanish

⁵ Ginsberg J., Bloom P. Choosing the right green marketing strategy // MIT Sloan Management Review. – 2004. – № 46 (1)., Orsato, R. Competitive Environmental strategies: When does it pay to be green? // California Management review. – 2006. – № 48 (2)., Alhamad A.M., Bin Mat Junoh M.Z., Binti Tunku Ahmad T.S., Eneizan B. Green marketing strategies: theoretical approach // American journal of economics and business management. 2019. Vol.2. № 2. P. 77-94, Wu J., Rangan S., Zhang H.Green communications: theoretical fundamentals, algorithms and applications. CRC Press. Taylor & Francis Group, 807 p.

⁶ F.M.Khan and S.Ahmad Managerial issues for Green Marketing in Food Processing Industry of India. International Journal of Agriculture and Food Science Technology. ISSN 2249-3050 Volume 5, Number 3 (2014), pp. 125-134

⁷ Яшалова Н.Н., Крылова Н.П., Левашов Е.Н. Региональный экологический маркетинг: особенности и перспективы. 2020, 123-132 с., Е.В.Смирнова. Экологический маркетинг. Практический маркетинг. №4 (158).2010. с. 9-14, Михайлова А. Мировой опыт регулирования зеленого маркетинга. Банкўскі веснік. ЧЭРВЕНЬ. 2021. С. – 63-70., Дедюля О.А. Зеленый маркетинг в устойчивом развитии. Гринвошинг: за и против / О. А. Дедюля. — Текст : непосредственный // Культура и экология – основы устойчивого развития России. Культурные и экологические императивы современной экономики. Часть 1: материалы Международного форума (Екатеринбург, 13–15 апреля 2020 г.). — Екатеринбург: ООО «Издательство УМЦ УПИ», 2020. — С. 226-229.

⁸ А.Ш.Бекмуродов, М.С.Қосимова, Ш.Ж.Эргашхаджаева. Стратегик маркетинг. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2010.-220 б. Soliyev A., Buzrukxonov S. Marketing, Bozorshunoslik. Darslik. –Т.: Iqtisod-Moliya, 2010.- 424 б., A.V.Vaxobov, Sh.X.Xajibakiev. “Yashil iqtisodiyot”. Darslik. Т.: “ZEBO PRINT”, 2021.-264 б., Болтабоев М.Р. Пахта толаси экспортида маркетинг самарадорлиги. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент, 1999 йил., Mamayev B. Oziq-ovqat tovarlari bozorlarida marketing tadqiqotlarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2011.

⁹ Eshmatov S.A. Sut va sut mahsulotlari mahalliy brendni shakllantirishning marketing strategiyasi. – Т.: Innovatsion rivojlanish nashryot-matbaa uyi, 2021-y. ISBN 978-9943-7135-9-8. УО‘К:378:001. КБК:74.58:72 Monografiya, 2022., Ikramov M.A. Brend siyosatini yuritish prinsiplari va omillari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnal. 1-son. 2021-y. yanvar-fevral. №00051. 246-251 bet. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>., Eshmatov S.A. Sut va sut mahsulotlari brendini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2024., Abduxalilova L. Go'sht va sut mahsulotlari marketingi strategiyasi (Toshkent viloyati misolida). – Т.: TDIU, 2005

tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot ishida sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanish masalasi o'rganilgan bo'lib, bu esa tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotdagi chuqur o'zgarishlar sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

yashil marketing konsepsiyasining mazmuni va unga nazariy yondashuvlarni o'rganish;

sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanishning uslubiy asoslarini tadqiq etish;

sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanish bo'yicha xorij tajribasini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasi sut mahsulotlari bozorining rivojlanish holati tahlil qilish;

sutni qayta ishlash korxonalarining marketing faoliyati tahlilini amalga oshirish;

sutni qayta ishlash korxonalarining yashil sertifikat va ekologik markirovkalash faoliyatining tahlili;

sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing strategiyalarini qo'llashni tadqiq qilish;

sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing faoliyatini boshqarishni takomillashtirish;

iste'molchilar xatti-harakatiga yashil sertifikat va ekologik markirovkalashning ta'sirini ekonometrik tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida sutni qayta ishlash korxonalarining marketing faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida abstrakt-mantiqiy tahlil va sintez, ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlashtirish, sabab-natija aloqalari, tizimli yondashuv, tanlanma kuzatuv, ekspert baholash, so'rov, statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, korrelyatsion va regression tahlil, "yashil" marketing strategiyasini tanlash matritsiyasi, ilmiy abstraksiyalash, usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "yashil marketing" konsepsiyasining mazmuni ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, barqaror ishlab chiqarish va iste'mol zanjiri, eko-markirovka, resurslarni tejash va energiya samaradorligi, jamoatchilikni xabardor qilish, ta'lim hamda ijtimoiy va ekologik mas'uliyat yo'nalishlarini e'tiborga olish asosida takomillashtirilgan;

"yashil sertifikatlash"ning bozor ulushiga ta'sirini bozor ulushining o'zgarishi, yangi mijozlarni jalb qilish darajasi va xalqaro bozorlarga kirish, "ekologik markirovkalash"ning iste'molchilar ishonchiga ta'sir darajasi esa iste'molchilarning ishonch darajasi va mahsulotlarni qayta sotib olish ko'rsatkichlari asosida baholash taklifi asoslangan;

sut mahsulotlari bozorida "Premium yashil", "Barqaror yashil", "Mass-market yashil" va "Standart yashil" kabi yashil marketing strategiyalarini qo'llash asosida "yashil marketing" strategiyasini tanlash matritsasi ishlab chiqilgan.

iste'molchilar xatti-harakatiga yashil mahsulot ulushi, yashil sertifikatga ega mahsulotlar ulushi, reklama xarajatlari, maqsadli auditoriya ulushining oshishi, brend qadri o'sishining ta'sirini ekonometrik tahlil qilish asosida iste'molchilarning qoniqish darajasining prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyalarini takomillashtirish orqali korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyati asoslangan;

barqaror rivojlanish va yashil marketing konsepsiyalarining o'zaro bog'liqligi, yashil marketing konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari belgilanib, korxonalarda ekologik xavfsiz va barqaror mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'llari aniqlangan;

sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanishning resurslarni tejash va chiqindilarni kamaytirish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish, yashil brend yaratish modellaridan foydalanishning uslubiy jihatlari yoritilgan;

sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyalarini qo'llash asosida korxonaning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston savdo-sanoat palatasi va Samarqand viloyatidagi sutni qayta ishlash korxonalarining statistik ma'lumotlari va davriy hisobotlaridan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika usullari yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyalaridan foydalanishga oid yashil marketing strategiyalari ishlab

chiqilishi, “yashil sertifikatlash”ning bozor ulushiga ta’siri va “ekologik markirovkalash”ning iste’molchilar ishonchiga ta’sir darajasi asoslab berilishi, sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyalarini qo’llash asosida korxonaning iqtisodiy samaradorligini baholash bo’yicha ko’rsatkichlar ishlab chiqilganligi, sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasini qo’llash bo’yicha xorij tajribasi o’ganilganligi, yashil marketing faoliyatini rivojlantirish bo’yicha yashil marketing strategiyasi iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida sutni qayta ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yashil marketing faoliyatini takomillashtirish asosida sutni qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish bo’yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan sohada ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, bozor holatini tahlil qilish hamda istiqbolli dasturlarni ishlab chiqishda yashil marketing konsepsiyasi asosida marketing faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqishda hamda oliy ta’lim tashkilotlari uchun o’quv adabiyotlari, jumladan, “Barqaror marketing va ijtimoiy o’zgarishlar” fani bo’yicha darslik va o’quv qo’llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanish bo’yicha olingan natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko’ra yashil marketing konsepsiyasining mazmuni yekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, barqaror ishlab chiqarish va iste’mol zanjiri, yeko-markirovka, resurslarni tejash va yenergiya samaradorligi, jamoatchilikni xabardor qilish, ta’lim hamda yekologik mas’uliyat yo’nalishlari asosida takomillashtirish taklifi O’zbekiston savdo-sanoat palatasi tarkibidagi korxonalar faoliyatiga joriy qilingan (O’zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 4-yanvardagi 06-10-33-49-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi natijasida sutni qayta ishlash korxonalarida “yashil marketing” dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

“yashil sertifikatlash”ning bozor ulushiga ta’sirini bozor ulushining o’zgarishi, yangi mijozlarni jalb qilish darajasi va xalqaro bozorlarga kirish, “ekologik markirovkalash”ning iste’molchilar ishonchiga ta’sir darajasini esa iste’molchilarning ishonch darajasi va mahsulotlarni qayta sotib olish ko’rsatkichlari asosida baholash taklifi O’zbekiston savdo-sanoat palatasi tarkibidagi korxonalar faoliyatiga joriy qilingan (O’zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 4-yanvardagi 06-10-33-49-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi natijasida sutni qayta ishlash korxonalarini tomonidan “yashil sertifikatlash”ning bozor ulushiga ta’siri va “ekologik markirovkalash”ning iste’molchilar ishonchiga ta’sir darajasini baholash imkoniyati yaratilgan;

sut mahsulotlari bozorida “Premium yashil”, “Barqaror yashil”, “Mass-market yashil” va “Standart yashil” yashil marketing strategiyalarini qo’llash

asosida ishlab chiqilgan “yashil marketing” strategiyasini tanlash matritsasi O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi tarkibidagi korxonalar faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 4-yanvardagi 06-10-33-49-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi “Puremilky works” mas‘uliyati cheklangan jamiyati korxonalari faoliyatida yashil marketing strategiyalarini qo‘llash imkoniyati yaratilgan.

iste‘molchilar hatti-harakatiga yashil mahsulot ulushi, yashil sertifikatga yega mahsulotlar ulushi, reklama xarajatlari, maqsadli auditoriya ulushining oshishi, brend qadri o‘shishining ta‘sirini yekonometrik tahlil qilish asosida iste‘molchilarning qoniqish darajasining prognoz qiymatlari O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi tarkibidagi korxonalar faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 4-yanvardagi 06-10-33-49-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida “Puremilky works” MChJ korxonasi yashil mahsulot ulushi, yashil sertifikatga yega mahsulotlar ulushi, reklama xarajatlari, maqsadli auditoriya ulushining oshishi, brend qadri o‘shishi iste‘molchilar qoniqish darajasining 2024-yilda 78,5 %, 2025-yilda 80,2 %, 2026-yilda 82,9 % va 2027-yilda 85,6 % ga oshishi prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob‘ekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasining nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida global ekologik muammolar jiddiy tus olganligi, iqlim o‘zgarishlari, ekologik inqirozlar va resurslarning kamayishi kompaniyalarni atrof-muhitga nisbatan mas‘uliyatli yondashuvlarni amalga oshirishga majbur qilishi natijasida marketing ilmida yangi yondashuv “yashil

marketing” konsepsiyasi vujudga kelganligi xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot natijalarida asosida o‘ganilgan.

Yashil marketing konsepsiyasi (green marketing) zamonaviy marketingning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ekologik barqarorlikni va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan. Yashil marketing konsepsiyasining mazmuni yoritishda yashil marketingning asosiy elementlari, amaliy yondashuvlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yashil marketing konsepsiyasining mazmuni bo‘yicha mualliflik qarashlari ilgari surilgan (1-jadval).

1-jadval

Yashil marketing konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari¹⁰

Yo‘nalishlar	Tavsifi	Asosiy natija
Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish	Mahsulotlarni ishlab chiqarishda ekologik jihatdan xavfsiz materiallar va texnologiyalarni qo‘llash.	Qayta ishlash materiallari, noxush kimyoviy moddalarni kamaytirish, tabiiy xom ashyodan foydalanish.
Barqaror ishlab chiqarish va iste’mol zanjiri	Iste’mol zanjirida ekologik xavfsiz usullarni qo‘llash va atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatish.	Sanoatni “yashil”lashtirish, barqaror ishlab chiqarish tizimlari, qayta ishlash, energiya samaradorligi.
Eko-markirovka	Mahsulotlarga ekologik xavfsizligini bildirish uchun maxsus belgilash.	Eko-etiketlar, “organik”, “yashil”, “tub ekologik” markalar.
Resurslarni tejash va energiya samaradorligi	Energiya va resurslarni tejash, shu jumladan qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish.	Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, energiya samarali texnologiyalar.
Jamoatchilikni xabardor qilish va ta’lim	Iste’molchilarga ekologik mas’uliyatni oshirish va ularni yashil mahsulotlar va xizmatlarga yo‘naltirish.	Ekologik kompaniyalar, ta’lim va treninglar, brendlarning ijtimoiy mas’uliyatini targ‘ib qilish.
Ijtimoiy va ekologik mas’uliyatli mahsulotlar	Mahsulotlar orqali ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni targ‘ib qilish.	Mahsulotlar va xizmatlar orqali ekologik ta’sirni kamaytirish, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish.

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

Sutni qayta ishlash korxonalarining marketing faoliyati samaradorligiga yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash ta'sir qiladi. Yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash sutni qayta ishlash korxonalarining marketing faoliyatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu faqat ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan cheklanmay, balki kompaniyaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga, bozor pozitsiyasini mustahkamlashga, brend imijini yaxshilashga va iste'molchilarning sodiqligini oshirishga yordam beradi. Korxonaning marketing faoliyati samaradorligiga yashil sertifikatlashtirish va ekologik markirovkalashning ta'sir bo'yicha bizning yondashuvimiz quyidagicha (2-jadval):

2-jadval

Marketing samaradorligiga yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalashning ta'siri¹¹

Ta'sir yo'nalishi	Ta'sir darajasi
Brendning imijini yaxshilash	Ekologik markirovka va yashil sertifikat korxonani ekologik mas'uliyatli brend sifatida tanitadi. Bu iste'molchilarning e'tiborini jalb qilib, ularning brendga bo'lgan ishonchini oshiradi. Korxonalar o'z mahsulotlarining ekologik tozaligini ta'kidlab, bozorda o'ziga xos imij yaratadi va raqobatbardoshligini oshiradi.
Iste'molchilar talabini oshirish	Yashil sertifikatlangan va ekologik markirovka qilingan mahsulotlar sog'lom turmush tarzini afzal ko'ruvchi iste'molchilar orasida katta talabga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iste'molchilarning 70% dan ko'prog'i ekologik mahsulotlar uchun ko'proq pul to'lashga tayyor.
Bozor ulushini oshirish	Yashil sertifikatlash xalqaro bozorlarda ishtirok etish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Korxonaning marketing strategiyalarini ekologik masalalar bilan integratsiya qilish orqali korxonaning global bozorda o'z ulushini oshirishi mumkin.
Mahsulot qiymatini oshirish	Yashil markirovkalangan mahsulotlar yuqori qiymat bilan sotiladi, bu esa korxonaning foyda marjasini oshiradi. Iste'molchilar ekologik xavfsiz mahsulotlar uchun qo'shimcha xarajat qilishga tayyor bo'ladi.
Innovatsiyalarni rivojlantirish	Yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash jarayoni korxonalarini yangi texnologiyalarni joriy qilishga undaydi. Bu esa marketing samaradorligini oshiruvchi yangi mahsulotlar va xizmatlarni taklif etish imkoniyatini beradi.

Yashil sertifikatlashtirish korxonaning marketing faoliyati samaradorligiga, jumladan, yashil sertifikatlash korxonaning bozor ulushiga, ekologik markirovkalash iste'molchilarning ishonchiga ta'sir qiladi. Shu orqali yashil sertifikatlashtirish va ekologik markirovkalash korxonaning marketing faoliyati samaradorligiga ta'sir qiladi. Yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining marketing faoliyatiga ta'sirini

¹¹ Muallif ishlanmasi.

baholashda quyidagi ko'rsatkichlar va shkalalardan foydalanishni taklif etamiz (3-jadval).

3-jadval

Yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalashni korxonada marketing faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholash¹²

Ko'rsatkichlar	Baholash mezonlari	Baholash shkalasi
Yashil sertifikatlashning bozor ulushiga ta'siri	1. Bozor ulushining o'zgarishi (%): $\Delta MS = \frac{MS_{new} - MS_{old}}{MS_{old}} \times 100$ Bu yerda: ΔMS – bozor ulushining o'sish foizi (%); MS _{new} – yashil sertifikatlashdan keyingi bozor ulushidagi o'sish; MS _{old} – yashil sertifikatlashdan oldingi bozor ulushi.	0-5 % - past o'sish; 6-15 % - o'rtacha o'sish; 16 % va undan yuqori - yuqori o'sish.
	2. Yangi mijozlarni jalb qilish darajasi (%): $\Delta NK = \frac{NK_{new} - NK_{old}}{NK_{old}} \times 100$ Bu yerda: ΔNK – yangi mijozlar sonining o'sish foizi (%); NK _{new} – yashil sertifikatlashdan keyin yangi mijozlar soning o'sishi; NK _{old} – yashil sertifikatlashdan oldingi mijozlar soning o'sishi.	<10 % - past daraja; 10-30 % - o'rtacha daraja; >30 % - yuqori daraja.
	3. Eksport bozorlarga kirish: $SPE = \frac{SP}{EP} \times 100$ Bu yerda: SPE – yashil sertifikatlangan mahsulotlarning eksportdagi ulushi (%); SP – yashil sertifikatlangan mahsulotlar qiymati, AQSH dollar EP – umumiy eksport mahsulotlar qiymati, AQSH dollar.	<10 % - past daraja; 10-30 % - o'rtacha daraja; >30 % - yuqori daraja.
Ekologik markirovkalashning iste'molchilarning ishonchiga ta'siri	1. Iste'molchilarning ishonch darajasi (so'rovnomada asosida): $CI = \alpha * RQ + \beta * EQ + \gamma * PQ + \delta * BI$ Bu yerda: CI – iste'molchilarning ishonch darajasi (Consumer Trust Index); RQ – mahsulotning sifati haqidagi iste'molchi fikrlari (Reliability Quality); EQ – ekologik markirovka bo'lgan ishonch (Environmental Quality); PQ – narx –sifat nisbati haqidagi iste'molchi qoniqishi (Price Quality); BI – brend imijiga bo'lgan ishonch (Brand image); α,β,γ,δ - har bir omilning ishonchga ta'sir darajasini aks ettiruvchi koeffitsientlar. Ular empirik ma'lumotlar asosida aniqlanadi.	Har bir ko'rsatkich (RQ, EQ, PQ, BI) bo'yicha respondentlardan ma'lumot yig'iladi. Empirik tahlil orqali α, β, γ, va δ qiymatlari belgilanadi. <40 % - past daraja; 40-70 % - o'rtacha daraja; >70 % - yuqori daraja.
	2. Iste'molchilarni qayta sotib olish ko'rsatkichi: $RPR = \frac{NRC}{TNC} \times 100$ RER (Repeat Eco-purchase Rate) – Ekologik markirovka qilingan mahsulotlar uchun qayta sotib olish ulushi (foizda). NRC – Qayta sotib olgan mijozlar soni (ekologik markirovka qilingan mahsulotlar): Ushbu mahsulotni ikki yoki undan ko'p marta xarid qilgan iste'molchilar soni; TNC – Umumiy mijozlar soni (ekologik markirovka qilingan mahsulotlar): Belgilangan vaqt oralig'ida ekologik markirovka qilingan mahsulotni sotib olgan barcha iste'molchilar soni.	<20 % - past daraja; 20-50 % - o'rtacha daraja; >50 % - yuqori daraja.

¹² Muallif ishlanmasi.

Yashil sertifikatlash korxonaga mahsulotlari raqobatchilardan ajralib turishiga yordam beradi va bu bozor ulushini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash marketing samaradorligini oshirishda kuchli vositadir. U korxonalarining bozorda raqobatbardoshligini oshiradi, iste'molchilarni jalb qiladi va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi. Yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalashning iste'molchilar ishonchiga ta'siri ko'rsatkichlar ekologik markirovkaga ega mahsulotlarning mijozlar orasidagi sodiqlik darajasini baholash va ekologik marketing strategiyalarining samaradorligini o'lchash uchun muhim hisoblanadi. Shu asosda kompaniyalar iste'molchilarning ekologik ongini hisobga olib, mahsulotlar sifatini va marketing strategiyalarini takomillashtirishlari mumkin.

Dissertatsiyaning **“Sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanish holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanish holati, sutni qayta ishlash korxonalarining yashil marketing faoliyati va sutni qayta ishlash korxonalarining yashil sertifikat va ekologik markirovkalash faoliyatining tahlili amalga oshirilgan.

Sut mahsulotlariga bo'lgan talab asosan quyidagi omillar ta'sirida o'zgaradi:

– aholi sonining o'sishi: aholining soni ko'paygan sari, sut mahsulotlariga bo'lgan talab ham ortadi. Bu esa o'z navbatida, sutni qayta ishlash va chakana savdo sohasini rivojlantiradi;

– daromad darajasi: aholining umumiy daromad darajasi o'zgarishi, oziq-ovqatga sarflanadigan mablag'ning hajmini ta'sir qiladi. Aholi daromadi ortishi bilan yuqori sifatli, sog'lom va turli xil sut mahsulotlariga bo'lgan talab ortadi;

– mehnat bozori va bandlik darajasi: ish bilan ta'minlanganlik va bandlik darajasi ham sut mahsulotlariga bo'lgan talabga ta'sir etadi. Ishsizlikning kamayishi, aholi daromadining oshishiga olib keladi, bu esa sut iste'moliga ijobiy ta'sir qiladi;

– iqlim va ekotizim sharoitlari: sut mahsulotlarining narxi va ta'minoti iqlim sharoitlariga ham bog'liq. Qishloq xo'jaligida o'sadigan mahsulotlarga bo'lgan talab iqlimning o'zgarishiga qarab farq qiladi.

– sog'lom ovqatlanish madaniyati: aholining sut mahsulotlariga bo'lgan talabi, ayniqsa sog'lom ovqatlanish bo'yicha o'zgarayotgan madaniyatga ham bog'liq. Bugungi kunda sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashga qiziqish ortmoqda. Bu esa ekologik toza va sog'lom sut mahsulotlariga bo'lgan talabni oshiradi.

Tadqiqot olib borilgan Samarqand viloyatidagi yirik sutni qayta ishlash korxonalaridan **“PUREMILKY WORKS”** MChJ, **“AGRO BRAVO”** MChJ, **“MUZMAS SAVDO”** MChJ va **“GELION ICE”** MChJlarning 2019-2023 yillardagi sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlil qilindi (4-jadval).

4-jadval

2019-2023 yillarda “PUREMILKY WORKS” MChJ, “AGRO BRAVO” MChJ, “Muzmas savdo” MChJ va “Gelion ice” MChJlarning sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari¹³

Asosiy ko‘rsatkichlar	yillar					2019 yilga nisbatan 2023-yilda o‘shish, %
	2019	2020	2021	2022	2023	
“PUREMILKY WORKS” MChJ						
Yillik ishlab chiqarish hajmi (mln. so‘m)	24300,6	54201,7	92661,5	142152,9	179104,7	636,7
Ishlab chiqarish miqdori (tonna)	3168,2	7340,9	11399,9	7918,8	9357,2	195,6
“AGRO BRAVO” MChJ						
Yillik ishlab chiqarish hajmi (mln. so‘m)	23681,3	34440,1	33638,7	46228,1	67955,1	187,6
Ishlab chiqarish miqdori (tonna)	820,5	1253,6	1422,2	1628,1	2005,3	144,3
“Muzmas savdo” MChJ						
Yillik ishlab chiqarish hajmi (mln. so‘m)	1500,4	2100,2	2700,5	3300,1	3900,0	160,0
Ishlab chiqarish miqdori (tonna)	75,5	105,8	135,2	165,0	195,3	158,8
“Gelion ice” MChJ						
Yillik ishlab chiqarish hajmi (mln. so‘m)	150,2	250,3	350,0	420,1	520,0	246,5
Ishlab chiqarish miqdori (tonna)	17,0	26,0	37,2	65,5	72,1	324,1

Tadqiqot uchun tanlab olingan “PUREMILKY WORKS” MChJ va “AGRO BRAVO” MChJlarning yashil marketing faoliyatini tadqiq qilishda korxonalarda ishlab chiqarilayotgan yashil mahsulotlar ulushi, yashil sertifikatga ega mahsulotlar ulushi, maqsadli auditoriya ulushining oshishi, brend qadrining o‘shishi, iste‘molchilarning qoniqish darajasi kabi ko‘rsatkichlar o‘rganildi.

“PUREMILKY WORKS” MChJning 2019-2023 yillardagi yashil marketing faoliyatiga oid ko‘rsatkichlarini o‘rganish uchun korxonaning ekologik faoliyati va marketing strategiyasini tahlil qilish zarur. Korxonaning ichki hisobotlari asosida

¹³ Korxonalarining hisobotlari asosida muallif ishlanmasi.

yashil mahsulotlar, ekologik sertifikatlar, raqamli sotuvlar va brend qadri o‘shirishini rivojlantirish bo‘yicha umumiy trendlar tahlili amalga oshirildi (5-jadval).

5-jadval

“PUREMILKY WORKS” MCHJning 2019-2023 yillardagi yashil marketing faoliyati bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlili¹⁴

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Yashil mahsulot ulushi, %	0,1	0,5	0,5	0,7	2,0
Yashil sertifikatga ega mahsulotlar ulushi, %	0,5	0,8	1,5	1,5	1,5
Reklama xarajatlari, mln. so‘m	507,2	685,9	857,6	1257,3	1350,7
Maqsadli auditoriya ulushining oshishi, %	10,5	12,3	18,5	25,0	28,6
Brend qadri o‘shishi, %	5,0	7,2	10,2	12,5	15,5
Iste‘molchilarning qoniqish darajasi, %	52,0	65,2	70,0	72,5	75,8


Yashil mahsulotlar ulushining yillar davomida o‘shishi kuzatilmoqda. 2019 yilda yashil mahsulot ulushi 0,1% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 2,0 % ga yetgan. Bu korxonaning ekologik jihatdan toza mahsulotlar ishlab chiqarishga katta e‘tibor berayotganini ko‘rsatadi. Yashil mahsulotlar ulushining yildan-yilga oshishi korxonaning barqaror rivojlanish yo‘lida bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarni aks ettiradi. Yashil sertifikatga ega mahsulotlar ulushi ham har yili ortib borishi kutilgan, chunki ekologik sertifikatsiyalar kompaniya uchun raqobat ustunligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. 2019 yilda yashil sertifikatga ega mahsulotlar ulushi 0,5% ni tashkil etgan, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 1,5% ga oshgan. Yashil sertifikatga ega mahsulotlarning ulushi oshishi, kompaniyaning sifat va ekologik jihatdan tasdiqlangan mahsulotlarga bo‘lgan talabni oshirganligini bildiradi.

Dissertatsiyaning **“Sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanish yo‘nalishlari va imkoniyatlari”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing strategiyasini qo‘llash imkoniyatlari, sutni qayta ishlash korxonalarida yashil marketing faoliyatini boshqarishni takomillashtirish va iste‘molchilar xatti-harakatiga yashil sertifikat va ekologik markirovkalashning ta‘sirini ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

“Yashil” marketing strategiyasini tanlash matritsasi – bu ekologik jihatdan toza va barqaror mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq marketing strategiyalarini tanlash uchun qo‘llaniladigan vosita. Yashil marketing ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarni reklama qilish, ishlab chiqarish va tarqatish

¹⁴ Korxonalarining hisobotlari asosida muallif ishlanmasi.

jarayonida atrof-muhitni himoya qilishga e'tibor qaratadi. Bu matritsa, kompaniyalarga yashil marketing strategiyalarini tanlashda yordam beradi va ularni o'z biznes rejalariga qo'llash uchun asos yaratadi. Matritsada turli omillar va ehtimoliy marketing strategiyalari ko'rib chiqiladi, bu orqali kompaniyalar qanday qilib o'z mahsulotlari yoki xizmatlarini ekologik mas'uliyatni inobatga olgan holda sotishlari mumkinligini aniqlaydi (1-rasm).



1-rasm. “Yashil” marketing strategiyasini tanlash matritsasi¹⁵.

Matritsa odatda ikki asosiy o'lchamga ega bo'lgan to'rt chorakdan iborat bo'ladi:

1. Xususiyatlar / mahsulotning ekologik foydasi. Yuqori ekologik foyda: Mahsulot yoki xizmatning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri minimal, bu mahsulot ekologik jihatdan toza va barqaror ishlab chiqarilgan bo'ladi.

Past ekologik foyda: mahsulot yoki xizmatning atrof-muhitga zararli bo'lishi yoki ekologik jihatdan kam samarali bo'lishi mumkin.

2. Xarajatlar / marketing strategiyasining qiymati. Yuqori xarajatlar: yashil marketing strategiyalarini amalga oshirishning narxi yuqori, chunki ishlab chiqarish jarayoni yoki resurslar ko'proq ekologik yondashuvni talab qiladi (masalan, qayta ishlash, ekologik toza materiallar ishlatish).

Past xarajatlar: yashil marketing strategiyasi uchun qo'shimcha xarajatlar kam yoki umuman yo'q. Matritsani ishlab chiqishda qaror qabul qilish uchun asosiy strategiyalar:

1. “Premium yashil” strategiyasi (yuqori ekologik foyda, yuqori xarajatlar):

Mahsulotlar – bu strategiya mahsulotlar ekologik toza va yuqori sifatli bo'lishini ta'minlaydi, lekin ishlab chiqarish jarayoni va resurslar ko'proq xarajatlarni talab qiladi. Masalan, ekologik toza materiallardan foydalangan holda premium toifadagi mahsulotlar ishlab chiqarish.

Marketing – bu strategiya ekologik toza mahsulotni yuqori narxda sotish orqali o'zini namoyon qiladi. Mahsulotning ekologik afzalliklarini targ'ib qilish,

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

bu mahsulotni atrof-muhitga g'amxo'rlik qilgan mijozlar uchun mos keladigan tanlov sifatida ko'rsatish kerak.

2. "Mass-market yashil" strategiyasi (yuqori ekologik foyda, past xarajatlar):

Mahsulotlar – bu strategiya mahsulotni ekologik jihatdan toza va barqaror ishlab chiqarishni, ammo ishlab chiqarishning xarajatlarini kamaytirishni maqsad qiladi. Mahsulotlar keng iste'molchi auditoriyasiga mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Marketing – "yashil" yondashuvlarni keng bozorga taklif qilish orqali ekologik jihatdan toza mahsulotlarni arzonroq narxlarda taqdim etish mumkin. Bu ko'proq e'tibor qaratiladigan iqtisodiy yondashuvni talab qiladi.

3. "Barqaror yashil" strategiyasi (past ekologik foyda, yuqori xarajatlar):

Mahsulotlar – bu strategiyada ishlab chiqarish jarayonida ekologik afzalliklar minimal yoki cheklangan bo'lishi mumkin, lekin mahsulot yuqori sifatli va premium narxda bo'ladi. Mahsulotda ekologik xususiyatlar mavjud bo'lishi mumkin, lekin bu sohada asosiy e'tibor xarajatlarga qaratiladi.

